



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/3060-4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 30.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Zulfixarov Ixom Maxmudovich
Mamasidiqov Bohodir Qobiljon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti

Uzbekistan

izulfixarov@mail.ru

MATEMATIKADAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA TEXNIK JARAYONLAR UCHUN SONLI O'RTA QIYMATLARNING GEOMETRIK VA FIZIK TATBIQLARI

Abstract: This article is dedicated to showing the geometric interpretation of numerical mean values for technical processes in mathematics practical classes and their application to solving physical problems. Through this, future engineers are once again convinced of how related mathematics and physics are.

Key words: Arithmetic mean, geometric mean, harmonic mean, quadratic mean, weighted mean values, trapezoid, similar trapezoids, average speed formulas, useful power.

Annotatsiya: Ushbu maqola, matematikadan amaliy mashg'ulotlarda texnik jarayonlar uchun sonli o'рта qiymatlarning geometrik talqini va fizik masalalarni yechishga tatbiqlarini ko'rsatishga bog'ishlangan. Shu orqali bo'lajak injenerlarga matematika va fizika fanlarining naqadar bog'liq ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilingan.

Kalit so'zlar: O'рта arifmetik, o'рта geometrik, o'рта garmonik, o'рта kvadratik, o'рта vazn qiymatlar, trapetsiya, o'xshash trapetsiyalar, o'rtacha tezlik formulalari, foydali quvvat.

Аннотация: Данная статья посвящена показу геометрической интерпретации средних числовых значений технических процессов на практических занятиях по математике и их применению при решении

физических задач. Благодаря этому будущие инженеры еще раз убеждаются в том, насколько тесно связаны математика и физика.

Ключевые слова: Среднее арифметическое, среднее геометрическое, среднее гармоническое, среднее квадратичное, средневзвешенные значения, трапеция, подобная трапеция, формулы средней скорости, полезная мощность.

Language: Uzbek

Citation: Zulfixarov, I., & Mamasidiqov, B. (2024). GEOMETRIC AND PHYSICAL APPLICATIONS OF NUMERICAL AVERAGE VALUES FOR TECHNICAL PROCESSES IN PRACTICAL LESSONS IN MATHEMATICS. Universal International Scientific Journal, 1(6), 67–72. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1111>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13903539>

Matematikani o'qitishdan (o'rgatishdan) maqsad matematika fanini rivojlantirish bo'lsa, uni rivojlantirishdan maqsad zamon talabi va zamonaviy fan va texnikaning muammolarini yechishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Buning uchun birinchi navbatda maktablar, litseylar va oliy ta'lim muassasalarida matematikadan dars beruvchi o'qituvchilar hamda o'quvchi va talabalarni matematik fikrlash qobiliyatini oshirishga katta e'tibor berishlari lozim.

Mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan o'quvchi va talabalarga matematikadan amaliy va to'garak mashg'ulotlarida o'tilgan mavzularni fizika, ximiya, texnika, iqtisodiyot v.h.k.ning hayotiy masalalarini yechishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Bunday bilim berishda o'quvchi va talabalarga o'rgatiladigan muhim bilim ma'lum turdagi masalalarni umumiy yechish usullaridir.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad, ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar hamda matematikaning tabiiy masalalarini yechishga ehtiyojmant mutaxassislariga texnik jarayonlar uchun o'rta arifmetik, o'rta geometrik, o'rta garmonik, o'rta kvadratik qiymatlarni hisoblashga doir hayotiy

masalalarni yechish usullari bo'yicha ko'nikmalar berishdan iborat.

Tabiiy masalalarni yechishda o'rta arifmetik, o'rta garmonik, o'rta kvadratik qiymatlarni hisoblashning umumiy formulalari, ularning geometrik (asosan trapetsiya bilan bog'liq) bog'likligiga doir masalalarni yechish usullarini o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Quyida, yuqorida aytilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan tushunchalar (formulalar) orqali tabiiy masalalarni yechish usullarini keltirib o'tamiz [3,4].

Maktab matematikasidan ma'lumki p ta musbat sonlar uchun

$$A(a_1, a_2, \dots, a_n) = \frac{a_1 + a_2 + \dots + a_n}{n}$$

– o'rta arifmetik,

$$G(a_1, a_2, \dots, a_n) = \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot \dots \cdot a_n}$$

– o'rta geometrik,

$$H(a_1, a_2, \dots, a_n) = \frac{n}{\frac{1}{a_1} + \frac{1}{a_2} + \dots + \frac{1}{a_n}}$$

– o'rta garmonik,

$$Q(a_1, a_2, \dots, a_n) = \sqrt{\frac{a_1^2 + a_2^2 + \dots + a_n^2}{n}}$$

– o'rta kvadratik

qiymatlari mavjud bo'lib, ular orasida $H \leq G \leq A \leq Q$ tengsizliklar o'rinli va bu tengsizliklar faqat $a_1 = a_2 = \dots = a_n$ bo'lganda tenglikka aylanish ma'lum.

Bu o'рта qiymatlardan tashqari yana "o'рта vazn" qiymati ham mavjud bo'lib, ushbu o'рта qiymat geometriya, fizika va texnikada ko'p qo'llaniladi [3,4].

Biz qulaylik uchun $n = 2$ bo'lgan holni qaraymiz. Demak, yuqorida o'рта qiymatlar:

$$A(a_1, a_2) = \frac{a_1 + a_2}{2}; \quad G(a_1, a_2) = \sqrt{a_1 a_2};$$

$$H(a_1, a_2) = \frac{2a_1 a_2}{a_1 + a_2}; \quad Q(a_1, a_2) = \sqrt{\frac{a_1^2 + a_2^2}{2}};$$

ko'rinishda bo'ladi va bular uchun


$$\frac{2a_1 a_2}{a_1 + a_2} \leq \sqrt{a_1 a_2} \leq \frac{a_1 + a_2}{2} \leq \sqrt{\frac{a_1^2 + a_2^2}{2}}$$

tengsizliklar o'rinlidir.

Bu tengsizliklarning geometrik talqinini ko'rib chiqamiz [3,4].

1-masala. $ABCD$ trapetsiyada ($AD = b$); va $BC = a$ $EF \parallel AD$ bo'lib

$AE:AB = n:m$ kabi bo'lsa, EF kesmaning uzunligini toping (1-shakl).




1-shakl.

Echish: F nuqtadan $KL \parallel AB$ o'tkazamiz K nuqta BC ning davomida $ABKL$ paralelogrami bo'lgani uchun $LK = AB$ va $LF:FK = n:m$ kabi $\triangle DLF \sim \triangle CKF$ $CK = x - a$ va $LD = b - x$

$$\frac{x - a}{b - x} = \frac{m}{n}, \quad x = \frac{an + bm}{n + m}$$

o'рта vazn qiymat formulasi kelib chiqadi.

2-masala. $ABCD$ trapetsiyada EF kesma asoslarga \parallel va dioganallarning kesishgan nuqtasidan o'tadi. EF kesmaning uzunligini toping (2-shakl).




2-shakl

Echish: Bu holatda $n:m = b:a$ bo'lgani uchun

$$\frac{x - a}{b - x} = \frac{a}{b}, \quad x = \frac{2ab}{a + b} = \frac{2}{\frac{1}{a} + \frac{1}{b}}$$

3-masala. EF kesma $ABCD$ trapetsiyani ikkita o'xshash trapetsiyalarga ajratadi (3-shakl). $EF = x$?




3-shakl

Echish: Bu masalani yechishda $AEFD$ va $EBCF$ trapetsiyalarning o'xshashligidan mos tomonlar nisbati bo'ladi, ya'ni

$$\frac{a}{x} = \frac{x}{b} \Rightarrow x = \sqrt{ab} \quad \text{javob: } x = \sqrt{ab}.$$

4-masala. EF kesma asoslarga parallel va $ABCD$ trapetsiyani ikkita tengdosh trapetsiyalarga ajratadi (4-shakl). $x = EF$ ni toping.



4-shakl

Echish: Shartga ko'ra $S_{AEFD} = S_{EBCF}$ AB va DC tomonlarning davomi K nuqtada kesishsin. U xolda,

- 1) $\Delta EKF \sim \Delta BKS$ dan $\frac{S_2}{S_1 + S_2} = \frac{a^2}{x^2}$
- 2) $\Delta AKD \sim \Delta EKF$ dan $\frac{2S_1 + S_2}{S_1 + S_2} = \frac{b^2}{x^2}$

Yuqoridagi tengliklarni qo'shsak,

$$\frac{a^2 + b^2}{x^2} = 2 \text{ va } x = \sqrt{\frac{a^2 + b^2}{2}}$$

Demak, biz asoslari a va b bo'lgan ixtiyoriy trapetsiyada asoslarga \parallel berilgan EF ning ayrim qiymatlari arifmetikadagi o'rta qiymatlar orqali ifodalanishini ko'rdik.

Endi bu qiymatlarning fizik masalalarni yechishga tadbirlarini ko'rib chiqamiz.

5-masala. Avtomobil A puktan B puktga V_1 tezlik bilan bordi va orqaga V_2 tezlik bilan qaytdi. Avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligini toping.

Echish: Hozirgi paytda kirish imtihonlarida test materiallari keng tarqalgani uchun bu masalani ko'pchilik o'quvchi va abituriyentlar to'g'ri yecha oladi. Lekin o'tgan asrning 90-yillarining oxirida mualliflardan bari bu masalani malaka oshirish institutida matematika o'qituvchilariga berganda 30

dan ortiq o'qituvchilardan 90% foizi $\frac{V_1 + V_2}{2}$ deb javob bergan edi. Ulardan 3 kishi bu javobning noto'g'riligini bilgan, lekin to'g'ri javobni bilmas ekan.

Endi masalaning yechimini keltiramiz, ma'lumki,

$$V_{o'rt} = \frac{S_{um}}{t_{um}}$$

Bu masalada

$$V_{o'rt} = \frac{S + S}{t_1 + t_2}, \quad t_1 = \frac{S}{V_1} \text{ va } t_2 = \frac{S}{V_2}$$

bo'lgani uchun

$$V_{o'rt} = \frac{2S}{\frac{S}{V_1} + \frac{S}{V_2}} = \frac{2}{\frac{1}{V_1} + \frac{1}{V_2}} \text{ yoki } V_{o'rt} = \frac{2V_1V_2}{V_1 + V_2}$$

Javob: $V_{o'rt} = \frac{2V_1V_2}{V_1 + V_2}$ o'rta garmonik qiymat.

Eslatma. Yo'l 3 yoki undan ko'p teng bo'laklarga bo'linganda o'rta garmonik qiymat formulasi murakkab tus oladi. O'quvchi yoki talaba murakkab formulani eslab qolishi kerak bo'ladi. Quyida biz bu formulaning nisbatan qulay ko'rinishini keltiramiz.

6-masala. Bosib o'tilgan yo'l n ta teng bo'laklarga bo'lingan bo'lib, bu oraliqlarni avtomobil mos ravishda v_1, v_2, \dots, v_n tezlik bilan bosib o'tgan bo'lsa, avtomobilning o'rtacha tezligini toping.

Echish: Yuqoridagi

$$\begin{aligned} V_{o'rt} &= \frac{S}{t_1 + t_2 + \dots + t_n} = \frac{S}{\frac{S}{nv_1} + \frac{S}{nv_2} + \dots + \frac{S}{nv_n}} \\ &= \frac{1}{\frac{1}{nv_1} + \frac{1}{nv_2} + \dots + \frac{1}{nv_n}} \end{aligned}$$

bu tenglikni quyidagi qulay ko'rinishga keltiramiz:

$$\frac{n}{v_{o'rt}} = \frac{1}{v_1} + \frac{1}{v_2} + \dots + \frac{1}{v_n}$$

Keltirilgan formula yordamida quyidagi masala juda oson yechiladi.

7-masala. Avtomobil yo'lining yarmini v tezlik bilan qolgan yarmining uchdan bir qismini $0.5v$ tezlik bilan, qolgan qismini esa $2v$ tezlik bilan o'tdi. Butun yo'l davomidagi o'rtacha tezlikni toping.

Echish: Yo'lining yarmi 3 qismga bo'lingani uchun butun yo'l 6 ta teng bo'lakka bo'lingan deb qarash mumkin. Demak,

$$\begin{aligned} \frac{6}{V_{o'rt}} &= \frac{1}{v_1} + \frac{1}{v_2} + \frac{1}{v_3} + \frac{1}{v_4} + \frac{1}{v_5} + \frac{1}{v_6} \\ &= \frac{1}{v} + \frac{1}{v} + \frac{1}{v} + \frac{1}{0.5v} + \frac{1}{2v} + \frac{1}{2v} = \frac{6}{v} \end{aligned}$$

bundan $V_{o'rt} = V$ ekanligi kelib chiqadi.

Javob: $V_{o'rt} = V$

8-masala. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan avtomobil ma'lum bir masofani o'tayotib masofa avvali aytalik A nuqtada tezligi v_a va masofani ohirgi nuqtasida v_b tezlikka erishadi. Ushbu masofaning o'rtasida avtomobilning tezligi v qanday bo'lgan?

Echish: Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra

$$\frac{mv^2}{2} - \frac{mv_a^2}{2} = \frac{mv_b^2}{2} - \frac{mv^2}{2}$$

Bunda masofaning o'rtasidagi tezlik

$$v = \sqrt{\frac{v_a^2 + v_b^2}{2}}$$

o'rta kvadratik qiymat kelib chiqadi.

Ushbu formulani geometrik talqinda keltirib chiqarish ham mumkin. Bizga $EF = V$ va EF

kesma $ABDC$ trapetsiyani ikkita tengdosh qismlarga ajratish ma'lum. Chunki $S_{ABCD} = S_{FEDC}$ yo'lining o'rtasi bo'lgani uchun, 4-masalaning javobiga ko'ra

$$v = \sqrt{\frac{v_a^2 + v_b^2}{2}}$$

9-masala. O'q stvoldan v tezlik bilan chiqib ketisa, stvolning o'rtasida qanday tezlikka ega bo'ladi.

Echish: Stvolning o'rtasidagi tezlik v bo'lsa,

$$V_A = 0, V_B = v \text{ bo'lsa, } V = \frac{v}{\sqrt{2}} \text{ bo'ladi.}$$

10-masala. Moddiy nuqta t_1 vaqt davomida v_1 , t_2 vaqt davomida v_2 tezlik bilan harakatlandi. Uning harakat davomidagi o'rtacha tezligini toping.

Echish:

$$V_{o'rt} = \frac{s}{t} = \frac{s_1 + s_2}{t_1 + t_2} = \frac{v_1 t_1 + v_2 t_2}{t_1 + t_2}$$

Eslatma. Ushbu masalani umumiy holda yechsak

$$V_{o'rt} = \frac{v_1 t_1 + v_2 t_2 + \dots + v_n t_n}{t_1 + t_2 + \dots + t_n}$$

o'rta vazn qiymati hosil bo'ladi.

Hulosa qilib shini aytish mumkinki, ta'lim muassasalaridagi matematika o'qituvchilari matematikaning tatbiqiy (muhandislik, fizik, mehanik va kimyoviy) masalalarini yechish bilan o'quv mashg'ulotlarida ko'proq shug'ullansalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'quvchi va talabalarni yana bir bor matematikaga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 9 iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi № PQ-4387-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4708-sonli Qarori.

3. Zulfixarov I.M. HISOB(CALCULUS) misol va masalalar // o'quv qo'llanma / AndMI. -2024. "Omadbek print number one" mchj. -200 bet.

4. Zulfixarov.I.M. Oliy ta'lim muassasalarida matematikadan o'quv mashg'ulotlarni kreativ loyihalangan ta'lim usuli vositasida tashkil etish // Monografiya. AndMI -2023. "Andijon nashriyot-matbaa" MCHJ.

5. Зулфихаров И.М. Математикадан ўтказиладиган амалий машғулотлар-нинг ўзига ҳос хусусиятлари // Та'лим, fan va inovatsiya, –Тошкент. –2017. –№ 4. –14-17 б.

6. Зулфихаров.И.М., Акбаров.С.А. Математикани ўрганиш ҳар бир касб эгалари ҳаёти учун муҳимдир // Педагогика ва психологика инновациялар 2-махсус сон, –Тошкент. -2020 й. 170-177 б.

7. Зулфихаров.И.М., Искандаров Д., Маматов Ф. Талабаларни математик тафаккурини ривожлантиришда "интеграл" қонунига амал қилиш // "Differensial tenglamalar va matematikaning turdosh bo'limlari zamonaviy muammolari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya, -Farg'ona, -2020 yil 12-13 mart, -308-311 б.

8. Zulfixarov I.M., Mamasidikov B. Proportional-integral-differential robot control algorithm // TATU Farg'ona filiali "TADQIQ VA TATBIQ" ilmiy-uslubiy jurnal SJIF 2024 (5.3). Tom 02. Son. 02. 2024 № 2(11) 27.02.2024.

9. Zulfixarov I.M., Atajonova S.B. Роль современной дидактики в эффективной организации обучения // Казахстан университет дружбы народов имени академика А.Куатбекова шымкент. - 12.04.2024.

10. Zulfixarov I.M., Atajonova S.B. Methodology of Explaining to Students the Organization of Bayes Networks with Mathematical Considerations in Practical Lessons in Mathematics // Innova Science Journal of Theory, Mathematics and Physics. Vol. 3, No. 4, 2024. p.40-45.